

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.10/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**G‘ULOMOV DOSTON INOMJON O‘G‘LI**

**TAYANHLARNING TURLI XILDAGI QO‘ZG‘ALISHLARIDA  
KO‘PRIKLARNI SEYSMIK TA‘SIRLARGA HISOBLASH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.02 – “Geotexnika” (Ko‘priklar, transport tonnellari va metropolitenlar)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA  
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**G‘ulomov Doston Inomjon o‘g‘li**

Tayanchlarning turli xildagi qo‘zg‘alishlarida ko‘priklarni seysmik ta’sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirish..... 5

**Гуломов Достон Иномжон угли**

Совершенствование методов расчета мостов на сейсмические воздействия при различных возмущениях опор..... 23

**Gulomov Doston Inomjon ogli**

Improvement of methods for calculating bridges under seismic loads considering various support disturbances..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 49

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.10/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**G‘ULOMOV DOSTON INOMJON O‘G‘LI**

**TAYANHLARNING TURLI XILDAGI QO‘ZG‘ALISHLARIDA  
KO‘PRIKLARNI SEYSMIK TA‘SIRLARGA HISOBLASH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.02 – “Geotexnika” (Ko‘priklar, transport tonnellari va metropolitenlar)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA  
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6269 raqami bilan ro‘yxatga olingan**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shermuxamedov Ulugbek Zabixullayevich**  
texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Akramov Xusniddin Axrorovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Nishonov Ne’matilla Asatillayevich**  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.10/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «2» mayda soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar-1, tel: (+99871) 299-00-01, 299-02-43, faks: 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz), [tashiit@exat.uz](mailto:tashiit@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 341 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar-1, tel: (+99871) 299-00-01)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «15» aprel kuni tarqatildi.  
(2026 yil «15» apreldagi 36-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.I. Adilxodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**N.R. Muxammadiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

**A.A. Ishanxodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda seysmik faol hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik inshootlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya bosqichlarida seysmik ta’sirlarni hisobga olgan holda zizilabardoshlikni ta’minlash, zilzila oqibatida hosil bo‘ladigan yuqori chastotali tebranishlarning ko‘prik inshootiga ta’sirini kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning Yaponiya, Turkiya, Xitoy, AQSH, Germaniya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Shvetsiya, Eron, Meksika, Rossiya, Koreya Respublikasi kabi rivojlangan mamlakatlarida avtomobil yo‘llaridagi ko‘prik inshootlarini seysmik ta’sirlarga hisoblash usullarini ularning tayanchlari turli xildagi qo‘zg‘alishlarini hisobga olgan holda takomillashtirish orqali ta’minlanmoqda. Shu jihatdan avtomobil yo‘llaridagi uzlukli va uzluksiz tizimdagi ko‘prik inshootlarining loyihalash, qurish va ekspluatatsiya bosqichlarida harakat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda seysmik faol hududlarda joylashgan avtomobil yo‘llari ko‘prik inshootlarini loyihalashda konstruktiv parametrlarni asoslash, seysmik himoya qurilmalaridan samarali foydalanish orqali ko‘prik inshootlarining seysmik xavfsizligini ta’minlovchi yangi texnik parametrlarni ishlab chiqish hamda seysmik yuklar ta’sirini ishonchli baholash usullarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, avtomobil yo‘llaridagi ko‘p tayanchli to‘sinli ko‘prik inshootlarining tayanchlari turli grunt va relyef sharoitlarida joylashganligini hisobga olgan holda ulardagi zilzila ta’sirini baholash usulini takomillashtirish, qurilish maydonini mikroseysmik rayonlashtirish asosida ko‘prik inshootining sonli modellarini shakllantirish, tayanchlar orasidagi korrelyatsiyani aniqlash hamda uzlukli to‘sinli ko‘priklarni seysmik ta’sirlarga chiziqli spektral usul asosida hisoblash yondashuvlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizning avtomobil yo‘llaridagi transport inshootlari qurilishi jarayonida kuchli zilzilaviy ekstremal sharoitlarda ko‘prik inshootlarining zizilabardoshligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan 192-197 bandlarida “... keyingi 5 yil davomida Toshkent va yirik shaharlar orasida avtomobil yo‘llari tarmoqlarini tezkorlik bilan rivojlantirish maqsadida avtomobil yo‘llarini rivojlantirish ...” yuzasidan vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, O‘zbekiston Respublikasi seysmik hududlaridagi temirbeton ko‘prik inshootlarning tayanchlari har xil seysmogeologik sharoitlarda joylashgan va ularda zilzila ta’siri har xil bo‘lishini hisobga olib ularning samaradorligini asoslash, har xil kuchga ega seysmik ta’sirlarda tayanchlarning nosinxron tebranishini hisobga olgan holda seysmik ta’sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirish masalalarining sonli hisoblash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 4-oktabrdagi

PQ-3309-sonli “Avtomobil yo‘llari ko‘priklari, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun‘iy inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi, 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli hamda 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli Qarorlarida seysmik xavfsizlikni ta‘minlash, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish, zamonaviy hisoblash usullarini joriy etish va qurilish jarayonlarining ishonchliligini ta‘minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli hamda 2025-yil 20-oktabrdagi PF-184-sonli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda seysmologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, hududlarning seysmik xavfini baholash aniqligini takomillashtirish hamda zilzilabardosh konstruktiv yechimlarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda transport inshootlarini seysmik ta‘sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirishga qaratilgan ushbu tadqiqot ishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining XIV – “Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Avtomobil yo‘llaridagi transport inshootlarini seysmik himoyalash va zilzilabardoshlik nazariyasining rivojlanishiga ilmiy, nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan dunyoning yirik olimlari A.D. Abakarov, Ya.M. Ayzenberg, A.A. Amosov, M.F. Barshteyn, T.A. Belash, J. Lysmer, V.A. Bixovskiy, I.I. Goldenblat, A.B. Grossman, T.J. Junusov, K.N. Kartsivadze, B.G. Korenev, V.S. Kirillov, I.L. Korchinskiy, D.A. Kurbatov, E.N. Kurbatskiy, A.I. Martemyanov, S.V. Medvedev, Sh.G. Napetvaridze, N.A. Nikolayenko, M.M. Onishchenko, A.A. Petrov, A.Ter-Kyurigyan, V.T. Rasskazovskiy, L.M. Reznikov, O.A. Savinov, J.L. Bogdanov, A.M. Uzdin, E.E. Xachiyani, A.A. Sernant, G.S. Shestoporov, Z.G. Xuchbarov, I.O. Kuznetsova, S.A. Shulman, L.N. Dmitrovskaya, T.V. Sukonnikova, J.G. Ardila, T.Igusa, shuningdek, Sh. Okamoto, Tecchio, G. Nouri, K. Kubo, M. Mikoshiba, T. Nishiki, Omori, Y. Zaslavskiy, R. Skinner kabi xorijiy tadqiqotchilar va boshqa ko‘plab mutaxassislar o‘z xulosalari bilan hissa qo‘shdilar.

Mamlakatimizda transport inshootlarining seysmik mustahkamligini ta‘minlash hamda umrboqiyiligini oshirish bo‘yicha ushbu yo‘nalishlarda ko‘p yillik tadqiqotlar va ishlanmalar rivojiga yetakchi olimlardan M.T. Urazbaev, T.R. Rashidov, X.A. Raxmatulin, V.A. Pshenichnika, A.A. Ishanxodjayev, G.X. Xojmetov, A.X. Abdujabarov, M.X. Miralimov, I.Mirzayev, U.Z. Shermuxamedov, U. Raxmanov, N.A. Krasin, N.A. Nishonov, A.B. Karimova, Z.Q. Raximjonov va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ammo, avtomobil yo‘llaridagi temirbeton ko‘prik inshootlarning tayanchlari har xil seysmogeologik sharoitlarda joylashgan va ularda zilzila ta‘siri turli xil bo‘lishini hisobga olib ularning samaradorligini asoslash, har xil kuchga ega seysmik ta‘sirlarda tayanchlarning nosinxron qo‘zg‘alishini hisobga olgan holda seysmik ta‘sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirish bo‘yicha muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan o'zaro bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II – “Energetika, energiya va resurslarni tejash”, XIV – “Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ko‘prik tayanchlarining turli grunt sharoitlarida joylashganligini hisobga olib transport inshootlarining seysmik mustahkamligini oshirish va seysmik ta'sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

uzunligi katta bo‘lgan ko‘p oraliqli konstruksiyalarni hisoblash usulbarining tahlili;

ko‘prik inshooti uzunligi bo‘ylab tezlanishlar maydonining nobirjinsligini hisobga olish zaruratini ilmiy asoslash;

tayanchlarning turli xildagi qo‘zg‘alishlarida uzlukli to‘sinli ko‘priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirish;

uzlukli to‘sinli ko‘priklarning tayanch qismlari siljishini baholash usulini ular orasidagi korrelyatsiyani hisobga olgan holda ishlab chiqish;

uzluksiz to‘sinli ko‘priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblash usullarini ularning tayanchlari nosinxron qo‘zg‘alishlarini hisobga olgan holda takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi seysmik faol hududlarida loyihalalanayotgan to‘sinli temirbeton ko‘prik inshootlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi seysmik sharoitlarida avtomobil yo‘llaridagi uzlukli va uzluksiz to‘sinli temirbeton ko‘prik inshootlari zilzilabardoshligini ta'minlash uchun konstruktiv elementlar, jumladan, oraliq qurilmalar, tayanchlar, poydevorlar va gruntni fizik-mexanik xususiyatlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda qurilish mexanikasi usullari, tebranishlar nazariyasi, matematik modellashtirish, bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi, seysmik ta'sirlarga chiziqli spektral hisoblash usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ko‘priklarni seysmik yuklarga hisoblashda qurilish maydoni relyefi va tezlanishlar maydonining nobirjinsligini hisobga olgan holda sonli mikroseymik rayonlashtirish asosida hisoblanayotgan inshoot uchun xavfli chastotali ta'sirlarda tayanchlar orasidagi korrelyatsiyani hisobga olish zarurligi asoslangan;

hudud relyefi va grunt sharoitlarining bir jinsli emasligi tufayli yuzaga keladigan ko‘prik tayanchlari qo‘zg‘alishlarining farqi bir-birini muvozanatlaydigan bo‘lib, ko‘prik o‘tish joyining uzunligi bo‘ylab tezlanishlar maydonining nobirjinsligi sezilarli bo‘lsa-da, natijada tezlanishlar farqi normalardagidek 2 baravar emas, balki atigi 20% ni tashkil etishi isbotlangan;

mavjud yondashuvlar doirasida tayanch qismining siljishini va oraliq qurilmalar tayanchlardan ehtimoliy tushib ketishining oldini olish uchun uzlukli to‘sinli ko‘priklarni hisoblashda ko‘prik uzunligi bo‘ylab tezlanishlar maydonining nobirjinsligini aniq hisobga olish imkonini beruvchi chiziqli spektral usulning takomillashtirilgan varianti ishlab chiqilgan;

uzluksiz to'sinli ko'priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblashda kuchlanishlarni tebranish shakllari va har bir tayanchning qo'zg'alishi bo'yicha alohida taqsimlash usuli tayanchlar orasidagi korrelyatsiyani hisobga olish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ko'priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblash usulini ularning tayanchlari turli xildagi grunt sharoitlarida joylashganligini hisobga olgan holda ishlab chiqish bo'yicha dasturiy ta'minot yaratilgan;

ko'prik uzunligi bo'ylab tevlanishlar maydoni sezilarli darajada nosinxronligiga grunt sharoitlari va joyning relyefi ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, ko'prik tayanchlari ostidagi tevlanishlar farqi me'yorlardagidek bo'yicha 2 ball emas, balki atigi 20% ni tashkil etishi isbotlangan;

O'zbekiston Respublikasi sharoitlarida avtomobil yo'llaridagi ko'prik inshootlarini loyihalashda nosinxron seysmik tebranishlarni hisobga olgan holda ko'prik tayanchlarini hisoblashning iqtisodiy samaradorligini baholash amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi seysmik hisoblashning tasdiqlangan nazariy asoslari va mikroseysmik rayonlashtirish ma'lumotlariga tayangan holda bajarilgani, transport inshootlarining zilzilabardoshligi sohasida ishlaydigan boshqa mutaxassislar tomonidan olingan natijalarga mos kelishi, chiziqli spektral usulning takomillashtirilgan varianti asosida olib borilgan ko'p variantli sonli hisoblashlar, turli grunt sharoitlarida dinamik usulda real va sun'iy zilzila yozuvlari asosida uzlukli va uzluksiz temirbeton ko'prik inshootlarining kuchlanish-deformatsiyalanish holati, real loyihaviy ko'prik inshootlari misolida olingan natijalarning o'zaro taqqoslanishi nazariy va amaliy natijalarining yuqori darajada o'zaro mos kelganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'prik inshooti uzunligi bo'ylab tevlanishlar maydonining nobirjinsligini hisobga olish nazariyasini qo'llagan holda qurilish maydonchasini mikroseysmik rayonlashtirish hamda uzlukli va uzluksiz to'sinli ko'priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblash usullarini ularning tayanchlari nosinxron tebranishlarini hisobga olgan holda takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan hisoblash usullari va yondashuvlar ko'prik inshootlarini loyihalash, seysmik barqarorligini baholash, mikroseysmik rayonlashtirish, grunt va relyef sharoitlarini hisobga olish asosida konstruktiv yechimlarni optimallashtirish, ortiqcha zaxira koeffitsiyentlarini kamaytirish va materiallar sarfini qisqartirish imkoniyati yaratilganligi hamda taklif etilgan seysmohimoyaviy tayanch qismlardan loyihalash jarayonida foydalanish va qurilish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tayanchlarning turli xildagi qo'zg'alishlarida ko'priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblash usullarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijalari asosida:

takomillashtirilgan chiziqli spektral hisoblash usuli asosida o'tkazilgan sonli tadqiqotlar natijasida uzlukli to'sinli ko'priklarni seysmik ta'sirlarga hisoblashda

tezlanishlar maydonining nosinxronligini hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan isbotlandi va “Sharof Rashidov tuman yo‘llardan foydalanish” davlat muassasasida loyihalashga joriy qilingan (“Sharof Rashidov tuman yo‘llardan foydalanish” davlat muassasasining 2025-yil 25-dekabrda ma‘lumotnomasi). Natijada, tezlanishlar farqi ShNQ 2.01.20-16 bo‘yicha 2 ball emas, balki atigi 20% ni tashkil etishi isbotlangan;

“4P 40 avtomobil yo‘lining 181,278 km dan o‘tgan ko‘prik qurilishi” loyihasi bo‘yicha uzlukli to‘sinli ko‘prik inshootini hududning mikroseysmik rayonlashtirilishini, mahalliy relyef hamda grunt sharoitlarini hisobga olgan holda loyihalash va qurish jarayonida “Sharof Rashidov tuman yo‘llardan foydalanish” davlat muassasasida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2026-yil 21-yanvardagi №4/E91-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, konstruktiv elementlarda ortiqcha zaxira koeffitsiyentlarini kamaytirish va materiallar sarfini optimallashtirish imkoniyati yaratish hamda mazkur yondashuvdan foydalanish qurilish va loyihalash xarajatlarini an‘anaviy usullarga nisbatan 72,2 % ga, ya‘ni 419,0 mln so‘mgacha qisqartirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalar, shu jumladan 5 ta xalqaro (shulardan 2 tasi SCOPUS bazasida) va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, ulardan 9 tasi xorijiy va mahalliy jurnallarda, shu jumladan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan, shuningdek EHM dasturi uchun 3 ta guvohnoma mavjud.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida uning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar taqdim keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘rganilayotgan masala holatining tahlili”** nomli birinchi bobida ko‘prik inshootlarini seysmik ta’sirlarga hisoblash va loyihalash bo‘yicha mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Uzlukli va uzluksiz to‘sinli ko‘priklarning seysmodinamik ish holatini baholashda qo‘llaniladigan asosiy nazariy yondashuvlar, jumladan, chiziqli spektral usulning imkoniyatlari va cheklavlari ko‘rib chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili natijasida ko‘p tayanchli va uzun ko‘prik inshootlari uchun seysmik ta’sirlarni sinxron qabul qilishga asoslangan mavjud hisoblash usullari tezlanishlar maydonining nosinxronligi, grunt sharoitlari va joy relyefining ta’sirini

yetarli darajada aks ettirmasligi aniqlangan. Shu asosda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari va tadqiqot yo‘nalishlari shakllantirilib, tanlangan ilmiy muammoning dolzarbligi asoslab berilgan.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda, Rossiyada, Yevrokod-8 va hattoki AQSh me‘yorlarida ham ko‘p oraliqli konstruksiyalarni zilzilabardoshlikka hisoblashda turli grunt sharoitlaridagi tayanchlarning nosinxron qo‘zg‘alishlarini hisobga oladigan, shuningdek, ta’sirlarning korrelyatsiya koeffitsiyentlari va spektral zichligini baholash uchun tegishli me‘yoriy tavsiyalar mavjud emasligi aniqlangan.


Dissertatsiyaning **“Inshoot uzunligi bo‘ylab tezlanishlar maydonining nobirjinsligini hisobga olish nazariyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘prik inshootlarini seysmik ta’sirlarga hisoblashda tezlanishlar maydonining shakllanishi hamda uning nosinxronligini belgilovchi omillar tadqiq etilgan. Hududning mikroseysmik rayonlashtirilishi, grunt sharoitlari va joy relyefining seysmik tebranishlarga ta’siri tahlil qilinib, ko‘p tayanchli ko‘priklar bo‘ylab tezlanishlar maydonining nobirjinsligi shakllanish mexanizmlari aniqlangan. Sonli modellashtirish asosida relyef va grunt sharoitlarining qarama-qarshi ta’sir xususiyatiga ega ekanligi ko‘rsatilib, ularning o‘zaro kompensatsiyasi natijasida tezlanishlar farqi me‘yoriy hujjatlarda keltirilgan qiymatlarga nisbatan ancha kichik bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Bunda tezlanishlar maydoni nobirjinsligining dastlabki **ikkita muhim omilini** ko‘ramiz: ***birinchisi*** – grunt sharoitlarining bir xil emasligi; ***ikkinchisi*** – joyning murakkab relyefi. So‘nggi vaqtlarda olib borilayotgan tadqiqotlar yer yuzasi nuqtalari tebranishlarining korrelyatsiyasini hisobga olishda quyidagi 3 ta parametrlarni (***Turli masshtablilik, nosinxronlik va nokogerentlik***) hisobga olish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ko‘prik o‘tish joyining uzunligi bo‘ylab haqiqiy tezlanishlar maydonini baholash maqsadida Jizzax viloyatidan o‘tuvchi 4P 40 “Dashtobod-Zomin-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lining 181.278 km qismidagi ko‘prik uchun maydonning raqamli mikroseysmik rayonlashtirilishi amalga oshirildi. Bunda quyidagi vazifalar belgilandi:

- ***Qurilish maydonidagi dastlabki seysmiklikni aniqlashtirish;***
- ***Seysmik ta’sirlarni aniqlash;***
- ***Tanlangan ta’sirlar uchun tezlanish maydonining nobirjinsligini hisoblash;***
- ***Loyihalash va qurish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.***

Mazkur ko‘prik uzunligi 24 m va og‘irligi har biri 33.4 tonna bo‘lgan 21 ta oraliq qurilmalardan iborat. Balandligi 8.50 m bo‘lgan temirbeton tayanchlar esa uzunligi 12.70 m, balandligi 1.50 m, kengligi 2.50 m bo‘lgan poydevorlarga birlashtirilgan. Ko‘prikda burg‘ilab kirgiziladigan uzunligi 16.0 m bo‘lgan qoziqlardan foydalanilgan. Ko‘prikning umumiy ko‘rinishi 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Ko'prikning umumiy ko'rinishi**

Ko'rib chiqilayotgan qurilish maydoni uchun o'ng qirg'oq tayanchi hisobiy seysmikligini 8 balldan 7 ballgacha pasaytirishga imkon beradigan yarim qoyasimon gruntlarda joylashganligi, maydonning o'rta qismi ikkita tayanchga ega ekanligi xosdir: o'ng o'zan tayanchi ham yarim qoyasimon gruntlarga asoslanadi, chap o'zan tayanchi esa zaif gruntlar qalinligini kesib o'tib, shartli mahkamlanish darajasi hisobiy seysmiklikni oshirishni talab qiladigan uchinchi toifadagi gruntlarda joylashgan. Chap tayanch ikkinchi toifali gruntlarda joylashgan. Qurilish maydoni turli gruntlarda joylashgan bo'lsa, qanday yo'l tutish kerakligi haqida savol tug'iladi. Shu munosabat bilan muallif tomonidan quyidagi yondashuvni ko'rib chiqamiz. Bu yerda ko'prik maydonchalarini mikroseysmik rayonlashtirishga umumiy yondashuv tasvirlangan bo'lib, zaif gruntli chuqurliklar, qirg'oq qiyaliklari va chetki tayanchlar mavjud, gruntlar qoyasimon, ammo qavariq yuza zonasida joylashgan.

Keyingi bosqichda qurilish maydoni uchun hisobiy ta'sirlarni tanlash vazifasi qo'yiladi. Quyida ta'sirning 5 ta varianti ko'rib chiqildi, bunda yarim qoyasimon gruntning erkin yuzasida 8 ballga mos keladigan tezlanish ta'minlandi:


1. AES obyektlarini loyihalashda foydalanish uchun tavsiya etilgan, yakuniy tezlilar va tezlanishlar bo'yicha muvozanatlashgan CA-482 ning sintetik ta'siri (2-rasm);

2. 1976-yilgi Ninghe real zilzilasi yozuvining tebranish davri 1 soniya bo'lgandagi yozuvi (3-rasm);

3. 1995-yildagi Mexiko-sitida sodir bo'lgan zilzila real yozuvining, tebranish davri 2 soniya va  $PGA=1,7 \text{ m/s}^2$  (4-rasm);

4. Tebranish davri 1,2 soniya bo'lgan o'ng o'zan tayanchi uchun xavfli bo'lgan sun'iy zilzila ta'siri (5,a-rasm);

5. Chap o'zan tayanchi uchun xavfli bo'lgan sun'iy zilzila ta'siri, tebranish davri 1,8 soniya (5,b-rasm).



**2-rasm. CA-482 ga ko'ra AES obyektlarini loyihalashda tezlanishlar va siljishlar bo'yicha muvozanatni hisobga olgan holda qo'llash uchun tavsiya etilgan sintetik ta'sir**




3-rasm. 1976-yildagi Ninghe zilzilasi haqiqiy ta'sirining yozuvi, tebranish davri 1 soniya




4-rasm. 1995-yilda Mexiko-sitida qayd etilgan, tebranish davri 2 soniya va  $PGA=1,58m/s^2$  bo'lgan haqiqiy ta'sirning yozuvi

Akselerogrammalarning absolyut tezlanish spektrlari shuni ko'rsatadiki, ular turli gruntlarda joylashganiga qaramay, juda o'xshash chiqdi va korrelyatsiya koeffitsiyenti kichik bo'lishi kerakdek tuyulsa-da, aslida shunday bo'lmadi. Kichik farqlar mavjud, masalan, 0,3 soniyada o'ng tayanchda kichik maksimumlar paydo bo'ladi, ammo chap tayanchda ular sezilmaydi. Bu esa mikroseysmik rayonlashtirishda seysmologlardan korrelyatsiya koeffitsiyentini albatta hisobga olishni talab qilish zarurligini ko'rsatadi.



5-rasm. O'ng o'zan tayanchi uchun xavfli bo'lgan sun'iy ta'sirlar va ularning spektrlari: (a) tebranish davri 1,8 soniya va (b) tebranish davri 1,2 soniya bo'lgan holatlarda

Tadqiqotlar o'tkazish uchun an'anaviy ravishda chekli elementlar usuli qo'llaniladi. Muammo shundaki, grunt bilan bog'liq masalalarda biz cheksiz maydon bilan ishlashimiz lozim, ammo amalda cheksiz asosdan muhandislik tilida "quti" deb ataladigan shartli chekli kichik maydonni ajratib olamiz (6-rasm).



[Quti elementlarining sxematik sharhi] Erkin maydon effekti (O), Qaytgan to'lqinning yutilishi (O)

6-rasm. Cheksiz chegara elementlari

Tadqiqotlarimizni amalga oshirish maqsadida Midas dasturiy majmuasida chekli elementlar usulidan foydalanib hisoblash modelini tahlil qildik. Buning uchun grunt massividan hisoblash modeli (7-rasm) - **shartli “quti”** ajratib olindi. Unda grunt massivining ajratilgan qismi hisoblash maydoni sifatida qo‘llaniladi. Ushbu “quti” hisob-kitoblar amalga oshiriladigan chegara sifatida xizmat qiladi va odatda to‘g‘ri to‘rtburchak, to‘g‘ri burchakli parallelepiped va boshqa shakllarda bo‘ladi. Amalda esa grunt massivi murakkab shaklga ega bo‘lishi mumkin. Chekli elementlarga ajratish aynan shu “quti” ichida amalga oshiriladi. Quti platforma sifatida ko‘riladigan qoyasimon poydevorda joylashgan. Hisobiy tezanish platformaning yuqori qismiga (quti ostiga) beriladi. Qutining yon tomonlarida “Free Field” (erkin maydon) turidagi maxsus chegaraviy shart o‘rnatilgan (6-rasm). Bu shart bir vaqtning o‘zida ham Lismerning (so‘ndiruvchi) qaytarmaydigan chegaralari vazifasini ado etadi, hamda tezanishlarning hisobiy soha chegarasi bo‘ylab tarqalishini cheklaydi. Bu esa hisobiy sxema chegaralarini kamaytirish va hisoblash vaqtini anchagina qisqartirishga imkon beradi. Lismer to‘lqinlarning qaytmaslik sharti:

Chap soha uchun:

$$\sigma_{xx} = c_p \rho \dot{u}_x - 2c_p \rho \dot{u}_{gx}; \quad \sigma_{xz} = c_s \rho \dot{u}_z - 2c_s \rho \dot{u}_{gz}; \quad \sigma_{yz} = c_s \rho \dot{u}_y - 2c_s \rho \dot{u}_{gy};$$


O‘ng soha uchun:

$$\sigma_{xx} = -c_p \rho \dot{u}_x; \quad \sigma_{xz} = -c_s \rho \dot{u}_z; \quad \sigma_{yz} = -c_s \rho \dot{u}_y;$$

Asos uchun:


$$\dot{u}_x = 0; \quad \dot{u}_z = 0; \quad \dot{u}_y = 0. \quad (1)$$

Qutining yon tomonidagi bikrligi gruntning elastik qarshiligini modellashtiruvchi grunt prujinalari yordamida hisobga olingan. Gruntning tebranish modeli Kulon-Mor mustahkamlik modeli bilan yaqinlashtirilgan bo‘lib, uning bikrligi boshlang‘ich elastiklik (elastik ko‘chish) moduli orqali tavsiflanadi.




7-rasm. Platformaning umumiy ko‘rinishi


Dastlab, xususiy tebranishlar shakllarining hisoblari amalga oshirildi. Tebranishlarning davri va shakllari aniqlandi(8-rasm).




*Tebranishning 1-shakli*



*Tebranishning 2-shakli*



*Tebranishning 3-shakli*



*Tebranishning 4-shakli*

**8-rasm. Tebranish shakllari**

Yuqoridagi rasmlardan ko‘rinib turibdiki, katta tebranish davriga ega bo‘lgan 1-shakl chap tomondagi mustahkam bo‘lmagan grunt sohasining tebranishiga, 4-shakl esa o‘ng tomon biki grunt sohasining tebranishiga mos keladi. Biz avval tanlagan 1-, 4- va 5-ta sirlar uchun ko‘rib chiqilayotgan maydon bo‘yicha 100 va 500 yilda bir marta takrorlanadigan ikkita PGA qiymati tahlil qilindi.

Endi inshoot uchun xavfli hisoblangan yuqoridagi 5 ta ta’sir akselerogrammalari bo‘yicha hisoblash natijalarini keltiramiz. Hisoblashlar MIDAS dasturida bajarilgan.

CA-482 ning yuqori chastotali ta’sirida ko‘prik o‘tish joyining kuchsiz gruntlardan tashkil topgan chap qirg‘og‘i asosga nisbatan kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_L=1.31$  bo‘lgan  $a=5.25$  m/s<sup>2</sup> maksimum tezlanishga ega, Ninghe zilzilaning uzoq davrli ta’sirida esa kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_L=1.5$  bo‘lgan  $a=4.19$  m/s<sup>2</sup> maksimum tezlanishga ega. Loyihalashtirilayotgan o‘rtacha intensivlikdagi tayanchlar uchun xavfli bo‘lgan ta’sirlarda, ko‘rib chiqilayotgan qiymatlar chap tayanch uchun kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_L=1.5$  bo‘lgan  $a=0.22$  m/s<sup>2</sup> va o‘ng tayanch uchun kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_L=1.4$  bo‘lgan  $a=0.29$  m/s<sup>2</sup> ni tashkil etdi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqadiki, qurilish maydonidagi tezlanishlar maydonining nobirjinsligi qurilayotgan konstruksiya uchun xavfli bo‘lgan ta’sirlarning spektral tarkibi asosida baholanishi lozim. Ko‘rib chiqilgan misolda tezlanishlar maydonining nosinxronligiga grunt sharoitlari va joyning relyefi ta’sir ko‘rsatgan. Ta’kidlash joizki, ularning ta’siri qarama-qarshi xususiyatga ega. Zaif grunt sharoitida, ayniqsa qazilmalarda, gruntlar tezlanishlarning ortishiga olib kelishi kerak, amalda esa qazilmalarning mavjudligi tezlanishlarning kamayishiga olib keladi. Natijada, tezlanishlar farqi ShNQ bo‘yicha 2 ball emas, balki atigi 20% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “Uzluqli to‘sinli ko‘priklarni seysmik ta’sirlarga hisoblash usullarini ularning tayanchlari nosinxron qo‘zg‘alishlarini hisobga olgan holda takomillashtirish” nomli uchinchi bobida uzluqli to‘sinli ko‘prik inshootlarini seysmik ta’sirlarga hisoblash uchun chiziqli spektral usulning takomillashtirilgan varianti ishlab chiqilgan. Ushbu bobda seysmik ta’sirlarni sinxron va nosinxron qabul qilish holatlari o‘rtasidagi farqlar sonli hisoblashlar asosida tahlil qilinib, tezlanishlar maydonining nosinxronligini hisobga olish tayanchlarda hosil bo‘ladigan ichki kuchlar va siljishlarning sezilarli darajada ortishiga olib kelishi ko‘rsatib berilgan. Olingan natijalar uzluqli to‘sinli ko‘prik uchun seysmik hisoblashda nosinxron qo‘zg‘alishlarni inobatga oluvchi yondashuvlardan foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ko‘prik inshootlarini seysmik ta’sirlarga hisoblashda hisobiy sxema elementlarida turli xil so‘nishlarning mavjudligi chiziqli spektral usul (ChSU)ni qo‘llashda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, oraliq qurilmalar, tayanchlar hamda grunt qatlamlarida energiya so‘nish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi va ularni yagona so‘nish koeffitsiyenti orqali ifodalash hisoblash aniqligini pasaytiradi. Shu munosabat bilan Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida joylashgan “Ko‘priklar ilmiy-tadqiqot instituti” (НИИ Мостов) da chiziqli spektral usulning modifikatsiyalangan varianti ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu yondashuv tebranish shakllari bo‘yicha turli xil so‘nishlarni hisobga olish imkonini beradi. Unga ko‘ra seysmik yuklar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$s_{ij} = K_1 \cdot m_i \cdot A_k \cdot g \cdot \beta_j \cdot K_{\psi}(\gamma_j) \cdot \eta_{ij}, \quad (2)$$

bunda  $k$  – tayanch raqami,  $j$  – tebranish shakli raqami,  $K_1$  – chegaraviy holatlar koeffitsiyenti,  $m_i$  –  $i$ - to‘plangan massa;  $A_k$  – “ $k$ ” tayanch ostidagi maksimal hisobiy tezlanishning og‘irlik kuchi tezlanishi ( $g$ ) ulushlaridagi qiymati;  $\beta_j$  – ShNQ 2.01.20-16 ga muvofiq qabul qilinadigan va grunt toifasiga qarab o‘zgaradigan xususiy tebranishlarning  $j$ -toniga mos keladigan dinamiklik koeffitsiyenti.

Ushbu usulning an’anaviy usuldan farqli jihati shundaki, bunda  $K_{\psi}$  koeffitsiyenti tebranish shakllarining so‘nishiga bevosita bog‘liq.

Endi ChSU dan foydalanib uzluqli to‘sinli ko‘prik tayanchlari turli grunt sharoitlarida joylashgan holatda ularning seysmik tebranishlarga javobi va nisbiy ko‘chishlarining shakllanish mexanizmini tahlil qilamiz. Bunda ikkita tasodifiy funksiyaning farqi bilan ish ko‘rdik: ***birinchisi*** – birinchi tayanch yuqori qismining tebranishi, ***ikkinchisi*** – ikkinchi tayanch yuqori qismining tebranishi.

Ma’lumki, zilzilalarda tayanch yuqori qismining harakati matematik jihatdan nolga teng, chunki bir tomonga va boshqa tomonga tebranish ehtimolligi bir xil bo‘lib, ko‘chishlar asosan bu kattalik dispersiyasi, ya’ni boshlang‘ich holatga nisbatan ko‘chishlarning tarqoqligi bilan aniqlanadi. ChSUDA tebranish shakllari bo‘yicha ko‘chishlar va kuchlarni qo‘shishda, qo‘shilayotgan kattaliklar (ko‘chishlar, tezlanishlar) matematik kutilmasi nolga teng bo‘lgan tasodifiy

funksiyalar deb faraz qilinadi. Hisoblangan kuch esa bu kattalikning o'rtacha kvadratik og'ishi bilan aniqlanadi.

Keyingi tahlil uchun tayanchning ko'chishida ko'chma (asosning ko'chishi) va nisbiy qismlarni ajratib olamiz, so'ngra izlanayotgan ko'chishni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$\Delta(t) = U_i - U_j \quad (3)$$

bu yerda,  $U_i = u_i + y_i$  -  $i$ -tayanch yuqori qismining to'la ko'chishi, bunda  $u_i$  -  $i$ -tayanchning keltirilgan ko'chishi (asosning ko'chishi),  $y_i$  -  $i$ -tayanchning nisbiy ko'chishi,  $U_j = u_j + y_j$  -  $j$ -tayanch yuqori qismining to'la ko'chishi.

Ko'chishlar maksimumi  $\Delta_{max}$  :

$$\Delta_{max} \leq |U_i| + |U_j| = |u_i + y_i| + |u_j + y_j| \quad (4)$$

Tayanchlarning ko'chishlari o'zaro bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni  $M[U_i U_j] = 0$  bo'lganda, o'zaro ko'chishni baholash (5) formula bo'yicha aniqlanadi.

$$\Delta = \sqrt{U_i^2 + U_j^2} \quad (5)$$

bu yerda  $M[a]$  -  $a$  miqdorning belgilangan matematik kutilmasi.

Agar tayanchlarning ko'chishlari o'zaro bog'liq bo'lsa, ya'ni ( $M[U_i \cdot U_j] \neq 0$ ), u holda korrelyatsiya koeffitsiyentini hisobga olgan holda ko'chishlar farqini hisoblash kerak. Umuman olganda,  $n$  ta tasodifiy jarayonlar yig'indisi  $\Phi_i$  omilining hisobiy qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Phi_i = \sqrt{\sum_{k=1}^n \sum_{j=1}^n \phi_{ij} \cdot \phi_{ik} \cdot \varepsilon_{kj}} \quad (6)$$

bu yerda  $\phi_{ik}$  -  $k$ -yukdan hosil bo'lgan  $i$ -faktor qiymati,  $\varepsilon_{kj}$  - jarayonning korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Ko'chish tebranishlarning birinchi shakli bilan aniqlangani uchun, tebranish shakllari bo'yicha yig'indini hisoblash zarurati yo'qoladi. Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\sigma_{\Delta}^2 = \sigma_i^2 + \sigma_j^2 - 2(\sigma_{u_i} \cdot \sigma_{u_j} \cdot \varepsilon_{u_i u_j} + \sigma_{u_i} \cdot \sigma_{y_j} \cdot \varepsilon_{u_i y_j} + \sigma_{u_j} \cdot \sigma_{y_i} \cdot \varepsilon_{u_j y_i} + \sigma_{y_i} \cdot \sigma_{y_j} \cdot \varepsilon_{y_i y_j}) \quad (7)$$

bu yerda  $\sigma_i$  orqali  $U_i$  to'liq ko'chishning o'rtacha kvadratik chetlanishi ifodalangan.

Odatda  $\varepsilon$  korrelyatsiya koeffitsiyentlari jarayonlarning statsionarligi (turg'unligi) taxmin qilingan holda aniqlanadi. Bunda har bir jarayon o'zining spektral zichligi bilan tavsiflanadi. Bizning holda u tayanch ostidagi tebranishlarning spektral zichliklari  $S_{u_i}(\omega) = S_i(\omega)$ ,  $S_{u_j}(\omega) = S_j(\omega)$  hamda o'zaro spektral zichlik  $S_{u_i u_j}(\omega) = S_{ij}(\omega)$  belgilanadi.

$\varepsilon_{u_i u_j}$ ,  $\varepsilon_{u_i y_j}$  va  $\varepsilon_{y_i y_j}$  korrelyatsiya koeffitsiyentlari  $K(\tau)$  korrelyatsiya funksiya orqali yoki o'zaro spektral zichlik  $S(\omega)$  orqali ifodalanadi. Masalan,  $y_0$  va  $y_j$  jarayonlar uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlari:

$$\varepsilon_{y_0 y_j} = \frac{K_{y_0 y_j}(0)}{\sigma_{y_0} \cdot \sigma_{y_j}} = \frac{\int_{-\infty}^{\infty} S_{y_0 y_j}(\omega) d\omega}{\sigma_{y_0} \cdot \sigma_{y_j}} \quad (8)$$

Bizning holatimizda, o‘zaro spektral zichlik j-tayanch ostidagi asos ko‘chishining Fure spektri  $W_{y_{0j}}(\omega)$  va tayanch yuqori qismi ko‘chishining Fure spektri  $W_{y_j}(\omega)$  o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

j-tayanch yuqori qismi ko‘chishining Fure spektri  $W_{y_j}(\omega)$  ni aniqlash uchun  $y(t)$  funksiyasi differensial tenglamaning yechimi ekanligini va tebranishlarning birinchi shakli bilan aniqlanishini hisobga olamiz, ya’ni:

$$\ddot{y} + \gamma k \dot{y} + k^2 y = \eta \ddot{y}_0, \quad (9)$$

bu yerda  $k$  – tebranishning birinchi shakli bo‘yicha tayanchning tebranish chastotasi,  $\gamma$  – tebranishlarning birinchi shakli bo‘yicha noelastik qarshilik koeffitsiyenti,  $\eta$  – tebranishlarning birinchi shakli bo‘yicha yuklarning taqsimlanish koeffitsiyenti.

$y_j$  funksiya uchun Fure spektri quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W_{y_j} = \frac{W_{\ddot{y}_0} \cdot \eta}{k_j^2 - \omega^2 + i\gamma_j k_j \omega} = \frac{\omega^2 W_{y_{0j}} \cdot \eta}{H_j}; \quad (10)$$

bu yerda  $H_j = k_j^2 - \omega^2 + i\gamma_j k_j \omega$ ;

Shuni ham ta’kidlash kerakki, chiqish signali spektri  $S_y$  kirish signali spektri  $S_{\ddot{y}_0}$  bilan bizga ma’lum bo‘lgan munosabat orqali bog‘langan.

$$S_y(\omega) = |\Phi(\omega)|^2 \cdot S_{\ddot{y}_0}(\omega) \cdot \eta = A(\omega) \cdot S_{y_0}(\omega) \cdot \omega^4 \cdot \eta \quad (11)$$

bu yerda  $\Phi(\omega) = \frac{1}{H}$  - (11) ifodaning asos tezlanishlaridan uzatilishdagi o‘tkazish funksiyasi; asos ko‘chishidan uzatishda  $\Phi(\omega) = \frac{\omega^2}{H}$ ;

$A(\omega) = \frac{1}{(k_j^2 - \omega^2)^2 + (\gamma_j k_j \omega)^2}$  – j- tayanch uchun (11) tenglamaning amplituda-chastota xarakteristikasi.

Shu bilan birga o‘zaro spektral zichlik  $S_{y_0 y_j}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{y_0 y_j}(\omega) = S_{y_0}(\omega) \cdot \bar{\Phi}_j(\omega) \quad (12)$$

(12) ifodani (8) ga qo‘yganda:

$$\varepsilon_{y_0 y_j} = \frac{\int_{-\infty}^{\infty} \frac{S_{y_0} \omega^2 \cdot \eta}{H_j} d\omega}{\sigma_{y_0} \cdot \sigma_{y_j}} \quad (13)$$

(7) formuladan ko‘rinib turganidek, quyidagi to‘rtta korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash zarur: tayanchlar osti yer yuzasidagi nuqtalar tebranishlari orasidagi  $\varepsilon_{u_i u_j}$ , tayanchlar yuqori qismidagi tebranishlar orasidagi  $\varepsilon_{y_i y_j}$ , yer yuzasidagi nuqtalar tebranishlari bilan bitta tayanch yuqori qismining tebranishlari orasidagi  $\varepsilon_{u_i y_j}$  hamda bir tayanch ostidagi yer yuzasi nuqtalarining tebranishlari bilan boshqa tayanch yuqori qismining tebranishlari orasidagi  $\varepsilon_{u_j y_i}$ .

Tayanchlar ostidagi yer yuzasi nuqtalarining tebranishlari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti  $\varepsilon_{u_i u_j}$ :

$$\varepsilon_{u_i u_j} = \frac{K_{u_i u_j}(0)}{\sigma_{u_i} \cdot \sigma_{u_j}} = \frac{\int_{-\infty}^{\infty} S_{u_i u_j}(\omega) d\omega}{\sigma_{u_i} \cdot \sigma_{u_j}} \quad (14)$$

Qo'shni tayanchlar yuqori qismining tebranishlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti  $\varepsilon_{y_i y_j}$ :

$$\varepsilon_{kj} = \frac{2\sqrt{\gamma_k \cdot \gamma_j \cdot (K_k)^3 \cdot (K_j)^3 \cdot (K_k \cdot \gamma_k + K_j \cdot \gamma_j)}}{(K_k + K_j)^2 \cdot (K_k - K_j)^2 + (K_k \cdot K_j) \cdot \left[ (K_k)^2 + (K_j)^2 \right] \cdot \gamma_k \cdot \gamma_j + (K_k \cdot K_j) \cdot \left[ (\gamma_k)^2 + (\gamma_j)^2 \right]} \quad (15)$$

Asos va tayanch yuqori qismi tebranishlari korrelyatsiya koeffitsiyentlari  $\varepsilon_{u_i y_j}$  va  $\varepsilon_{y_i u_j}$ :

$$\varepsilon_{u_i y_j} = \frac{K_{u_i y_j}(0)}{\sigma_{u_i} \cdot \sigma_{y_j}} = \frac{\sigma_0^2 \cdot \eta \cdot \frac{k_j}{(\omega_2 - \omega_1)} \int_{\frac{\omega_1}{k_j}}^{\frac{\omega_2}{k_j}} \frac{x^2(1-x^2)}{[(1-x^2)^2 + (\gamma_j x)^2]} dx}{\sigma_0^2 \sqrt{\eta \cdot \frac{k_j}{(\omega_2 - \omega_1)} \int_{\frac{\omega_1}{k_j}}^{\frac{\omega_2}{k_j}} \frac{x^4}{[(1-x^2)^2 + (\gamma_j x)^2]} x^4 dx}} = \frac{\eta \cdot \frac{k_j}{(\omega_2 - \omega_1)} \int_{\frac{\omega_1}{k_j}}^{\frac{\omega_2}{k_j}} \frac{x^2(1-x^2)}{[(1-x^2)^2 + (\gamma_j x)^2]} dx}{\sqrt{\eta \cdot \frac{k_j}{(\omega_2 - \omega_1)} \int_{\frac{\omega_1}{k_j}}^{\frac{\omega_2}{k_j}} \frac{x^4}{[(1-x^2)^2 + (\gamma_j x)^2]} x^4 dx}}$$

